



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 442 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umarkulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxiid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ortodontiyada mioterapiya: miogimnastik dentoalveolyar apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21St Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	
Yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional mashqlarning ahamiyati.....	326
Aminov Botir Umidovich	
Nutqiy faoliyatda fikr va til tizimlari.....	330
Axmedova Muyassar Xadimatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish psixologiyasi	333
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Halimova Gulasal Xamroqulovna	
10–12 yoshli tennischilarda texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uslubiyati	336
Axmedova Nafisa Isaxodjayevna	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarining ilmiy tadqiqi.....	340
Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna	
Musobaqa oldi bosqichida tennischilarning maxsus jismoniy sifatlarini kompleks mashqlar yordamida rivojlantirish uslubiyati.....	345
Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv	349
Choriyeva Durdona Anvarovna, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi	
Xorij olimlari tadqiqotlarida mustaqillik sifatini rivojlantirishga oid yondashuvlar	354
D. A. Saliyeva	
Milliy adabiyot namunalari yordamida talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	358
Erallyeva Dilnoza Oybek qizi	

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari	362
<i>Kandaxarov Zafar Ishratovich, Tajibayeva Komila Taxirjonovna</i>	
Integrating Communicative and Task-Based Approaches in English Language Teaching Within a Learner-Centered Framework	366
<i>Madinabonu Farkhodova</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish usullarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	370
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	373
<i>Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna</i>	
7-sinf biologiya kursini o'qitishda o'quvchilarning metodologik savodxonligini shakllantirish	377
<i>Mirzayeva Nigoraxon Ibrohimjon qizi, Azimov Bekjon Ibrohimjon o'g'li</i>	
10–12 yoshli belbog'li kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish	380
<i>Mirzoqulov Sh. A.</i>	
Pedagog xodimlarning malaka-mahoratini oshirish – samaradorlik omili	384
<i>Musurmonova Mariya Burxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida boshqarishning pedagogik mexanizmlari	387
<i>Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Zamonaviy o'zbek tilida so'z tartibi va sintaksis xususiyatlari	392
<i>Narimova Gulnora Abdumannonova</i>	
Ilmiy va innovatsion boshqaruv yondashuvlari orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari	396
<i>Norbo'tayev Baxtiyor Abduraximovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algebraik fikrlashni rivojlantirishda mental arifmetikaning o'rni va roli	400
<i>Nurillayev Samad Safarovich, Qodirova Nilufar</i>	
Bolalarning sportga oid ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish omillari va yo'nalishlari	405
<i>Ochilov Jonibek Abdo'xomid o'g'li, Rishad Badayev</i>	
Raqamli ta'lim jarayonida pedagoglarning AKT va media savodxonligini oshirish bo'yicha samarali metodik yondashuvlar	408
<i>Rashidov Sherzod Abdirayimovich</i>	
Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarning ona tiliga doir bilimlarini mustahkamlash	413
<i>Raxmataliyev Sherzod</i>	
Bosh harflar ramzga aylanganda: monogrammaning zamonaviy grafik dizayndagi ahamiyati	416
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish usullari	420
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Tursunova Saida Soliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida noverbal muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodlari	423
<i>Xolmo'minova Bahora Abdujalolovna</i>	
Frustratsiya holatining psixologik mohiyati va uni yengish mexanizmlari	426
<i>Y. E. Sobirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni hikoya qilishda motiv va syujetning tarbiyaviy ahamiyati ("Pahlovon Rustam" ertagi misolida)	430
<i>Zulayxo Nazarova, Farangiz Mardiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb saytlari sifatini oshirishda sun'iy intellektdan neft va gaz sohasida foydalanish muammolari	433
<i>Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	437
<i>Шадиева Нигора Шариповна, Нуруллоева Нилуфар Рузимбоевна</i>	

MILLIY ADABIYOT NAMUNALARI YORDAMIDA TALABALAR TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada milliy adabiyot namunalarining talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi va milliy adabiy meros bu jarayonda noyob pedagogik potensialga ega. Tadqiqotda o'zbek klassik va zamonaviy adabiyoti namunalarining didaktik xususiyatlari, ularning badiiy-estetik, falsafiy-axloqiy va milliy-madaniy mazmuni tanqidiy tafakkurni rivojlantirish kontekstida tahlil qilingan. Muallif tomonidan milliy adabiyot asosida tanqidiy tafakkurni shakllantiruvchi didaktik tizim yaratilgan bo'lib, unda matn tahlili, muammoli situatsiyalar, dialogik o'qitish, ijodiy loyihalash, bahs-munozara va refleksiya metodlarining o'zaro uyg'unligi ta'minlangan. Maqolada professor-o'qituvchilar uchun milliy adabiyot ta'limida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning amaliy metodikasi, o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllari va baholash mezonlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, didaktik imkoniyatlar, milliy adabiyot, badiiy matn tahlili, muammoli ta'lim, dialogik o'qitish, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: The article studies the didactic possibilities of national literature examples in developing students' critical thinking. The formation of critical thinking competence is one of the priority areas in the modern education system, and the national literary heritage has a unique pedagogical potential in this process. The study analyzes the didactic characteristics of Uzbek classical and modern literature examples, their artistic-aesthetic, philosophical-moral and national-cultural content in the context of developing critical thinking. The author has created a didactic system for forming critical thinking based on national literature, which provides for the interaction of text analysis, problem situations, dialogic teaching, creative design, debate and reflection methods. The article presents practical methods for developing critical thinking in national literature education for professors and teachers, effective forms of organizing the educational process, and assessment criteria.

Key words: critical thinking, didactic opportunities, national literature, literary text analysis, problem-based learning, dialogic teaching, pedagogical technologies.

Аннотация: В статье исследуются дидактические возможности примеров из национальной литературы в развитии критического мышления у студентов. Формирование компетенции критического мышления является одним из приоритетных направлений в современной системе образования, и национальное литературное наследие обладает уникальным педагогическим потенциалом в этом процессе. В исследовании анализируются дидактические характеристики примеров из классической и современной литературы Узбекистана, их художественно-эстетическое, философско-нравственное и национально-культурное содержание в контексте развития критического мышления. Автор разработал дидактическую систему формирования критического мышления на основе национальной литературы, которая предусматривает взаимодействие текстового анализа, проблемно-ситуативного обучения, диалогического обучения, творческого проектирования, дебатов и рефлексивных методов. В статье представлены практические методы развития критического мышления в преподавании национальной литературы для преподавателей, эффективные формы организации учебного процесса и критерии оценки.

Ключевые слова: критическое мышление, дидактические возможности, национальная литература, анализ литературных текстов, проблемно-ориентированное обучение, диалогическое обучение, педагогические технологии.



KIRISH

Zamonaviy jahon ta'lim tizimida tanqidiy tafakkurga ega bo'lgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ma'lumotlarni tahlil qilib, mantiqiy xulosalar chiqarishga qodir kadrlar tayyorlash eng muhim vazifa sifatida belgilangan. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tanqidiy tafakkurni XXI asr uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri deb e'tirof etgan. Bu ayniqsa gumanitar ta'lim sohasida, xususan filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ularning kelajakdagi professional faoliyati til, adabiyot va madaniyat kabi murakkab hodisalarni tushunish, talqin qilish va o'rgatish bilan bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezidentimizning ta'lim sohasiga oid farmoyishlari va qarorlari zamonaviy bilim olishning shunchaki axborotlarni yod olish emas, balki ularni tanqidiy baholash, tahlil qilish va amalda qo'llash qobiliyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu vazifani amalga oshirishda milliy adabiyot namunalari noyob didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek milliy adabiyotining boy va ko'p qirrali merosi talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun ulkan pedagogik potensialga ega. Alisher Navoiy^[1], Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy, Furqat kabi ulug' mutafakkirlarning asarlari, XX asr adabiyotining nodir namunalari, zamonaviy o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlari nafaqat badiiy-estetik qiymat, balki falsafiy chuqurlik, ijtimoiy-tarixiy muhim muammolarni aks ettirish, insonning ichki dunyosini ochib berish bilan ajralib turadi. Bu asarlar talabalarni chuqur o'ylashga, turli qarashlarni taqqoslashga, sabab-oqibat munosabatlarini anglashga, badiiy obrazlar orqali hayotiy haqiqatlarga yetishga undaydi.

Tanqidiy tafakkur muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiyada keng tadqiq etilib kelinmoqda. Tanqidiy tafakkurning turli nazariy konsepsiyalari mavjud bo'lib, ularning har biri muayyan jihatlarni ta'kidlaydi. Jon Dyuning reflektiv fikrlash nazariyasi tanqidiy tafakkurni muammoni anglash, farazlar qo'yish va ularni tekshirishga asoslangan faoliyat sifatida ko'rib chiqadi. Richard Pol va Linda Elder tanqidiy tafakkurni o'z fikrlash jarayonini ongli ravishda nazorat qilish va takomillashtirish san'ati deb ta'riflaydilar. Ularning "Universal intellektual me'yorlar" konsepsiyasi tanqidiy fikrlashning aniqlik, to'g'rilik, chuqurlik, kenglik, mantiqiylik kabi sifatlarini ajratib ko'rsatadi. Lev Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy muloqot va madaniy vositalarning rolini ta'kidlaydi. Uning "Yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi ta'lim jarayonida o'qituvchi va hamkasb talabalari yordamida talabaning potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning muhimligini ko'rsatadi. Bu konsepsiya milliy adabiyot asosida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda dialog va hamkorlik usullarini qo'llash zarurligini asoslaydi. Benjamin Blumning ta'lim maqsadlari taksonomiyasi tanqidiy tafakkur rivojlanishining ierarxik tuzilishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu taksonomiyaning yuqori darajalari - tahlil qilish, baholash va yaratish - tanqidiy tafakkurning asosiy komponentlari hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda yangilangan Bloom taksonomiyasi keng qo'llaniladi va milliy adabiyot ta'limida ham samarali foydalanilishi mumkin.^[3] Milliy adabiyot va tanqidiy tafakkur o'rtasidagi didaktik munosabatlar ham alohida tadqiqot ob'yektiga aylangan. Louise Rosenblatning transaksion nazariyasi adabiy asarni o'qish jarayonini o'quvchi va matn o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, har bir o'quvchi matnni o'zining shaxsiy tajribasi, bilimi, his-tuyg'ulari orqali talqin qiladi va bu jarayon tanqidiy tafakkurni talab etadi. Bu nazariya milliy adabiyot ta'limida talaba markazli, dialogik yondashuvning nazariy asosini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kompleks metodologik paradigma asosida olib borilgan bo'lib, nazariy va empirik metodlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Tadqiqot metodologiyasi didaktik, psixologik va filologik yondashuvlarning sinteziga asoslangan. Nazariy tadqiqot metodlari doirasida tanqidiy tafakkur pedagogikasi, didaktika nazariyasi, adabiyot ta'limi metodikasiga oid ilmiy adabiyotlar keng miqyosda o'rganildi. Xususan, Lev Vigotskiyning^[2] ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Jan Piajening kognitiv rivojlanish konsepsiyasi, Benjamin Blumning ta'lim maqsadlari taksonomiyasi, Pol va Elderning tanqidiy tafakkur modeli, Louise Rosenblatning transaksion o'qish nazariyasi kabi fundamental ishlar tahlil qilindi. O'zbek pedagogikasi va metodikasi sohasidagi ilmiy manbalar, milliy adabiyot ta'limiga oid tadqiqotlar ham keng o'rganildi. Didaktik tahlil metodi milliy adabiyot namunalari tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdagi potensialini aniqlashda qo'llanildi. Bu jarayonda har bir adabiy asarning mazmuniy xususiyatlari, obrazlar tizimi, falsafiy-axloqiy muammolari, tarixiy-madaniy konteksti, til va uslub o'ziga xosligi tanqidiy tafakkur rivojlanishi nuqtai nazaridan baholandi. Tahlil davomida klassik asarlar (Navoiy, Bobur, Muqimiy asarlari) va zamonaviy adabiyot namunalari (XX-XXI asr o'zbek adabiyoti) ning didaktik imkoniyatlari solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqot milliy adabiyot namunalarining tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdagi konkret didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish imkonini berdi. Dastlabki diagnostika natijalari talabalarning tanqidiy tafakkur darajasi haqida quyidagi tasavvur yaratdi. Diagnostik test maksimal baho yuz ball edi va Bloom taksonomiyasining barcha darajalarini qamrab oldi. Umumiy natijalar bo'yicha talabalarning o'rtacha ko'rsatkichi 54,3 ball tashkil etdi, bu o'rtacha darajani bildiradi. Biroq tanqidiy tafakkurning turli komponentlari bo'yicha natijalarda katta farq kuzatildi. Bilish va tushunish darajalarida talabalar nisbatan yaxshi natija ko'rsatdilar (o'rtacha 68 ball), tahlil qilish darajasida o'rtacha natija 52 ballni tashkil etdi, sintez va baholash darajalarida esa ko'rsatkichlar sezilarli darajada past bo'ldi (o'rtacha 38 ball). Milliy adabiyot matnlari bilan ishlashda ham turli darajadagi qiyinchiliklar aniqlandi. Talabalarning ko'pchiligi asarning syujetini va asosiy voqealarni yaxshi eslasalar ham, obrazlarning ichki dunyosini tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, asardagi ramziy ma'nolarni tushunish, turli tanqidiy talqinlarni solishtirish kabi murakkab vazifalarni bajarishda qiyinchilikka duch keldilar. Bu shuni ko'rsatdiki, talabalar asosan reproduktiv darajada fikrlaydilar va tanqidiy tafakkur ko'nikmalariga kam egalardirlar. Professor-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar ham muhim ma'lumotlar berdi. O'qituvchilarning aksariyati milliy adabiyotning katta didaktik potentsialga ega ekanligini tan oldilar, biroq bu potentsialdan to'liq foydalanish uchun tegishli metodikaning yo'qligini ta'kidladilar. Ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy ma'ruza va savol-javob metodlariga ko'proq tayanishlarini, tanqidiy tafakkurni rag'batlantiradigan interaktiv metodlarni kam qo'llashlarini e'tirof etdilar. Asosiy sabablar sifatida vaqt cheklanganligini, katta guruhlar hajmini, zamonaviy metodikaga oid bilim va ko'nikmalarning yetishmasligini ko'rsatdilar.

Didaktik tahlil natijalariga ko'ra, turli milliy adabiyot namunalari tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos imkoniyatlariga ega ekanligi aniqlandi. Klassik adabiyot asarlari, xususan Alisher Navoiyning dostonlari falsafiy tafakkurni, abstraktlash qobiliyatini, axloqiy masalalarda tanqidiy munosabat bildirishni rivojlantiradi. Masalan, "Lison ut-tayr" dostonida hudhudning sayohati ramziy ma'nolarni tushunish, ichki ma'naviy yo'lni anglash, tasavvufiy tushunchalarni talqin qilish kabi murakkab aqliy operatsiyalarni talab etadi.^[4] Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tarixiy fikrlash, voqealarni tahlil qilish, shaxsiy va davlat manfaatlarini muvozanatlash, turli xil odamlarni baholash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ajoyib material beradi. Talabalar Bobur tasvirlaydigan voqealar va shaxslarni tahlil qilar ekan, turli nuqtai nazarlarni hisobga olishga, tarixiy kontekstni tushunishga, muallif sub'ektivligini baholashga o'rganadilar. XX asr o'zbek adabiyotining dastlabki davri namunalari, xususan Cho'lpon she'riyati milliy istiqloq, milliy o'zlik, mustaqillik g'oyalari kabi murakkab tushunchalarni tanqidiy o'rganish imkonini beradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarini milliy tarixni tanqidiy o'rganish, tarixiy voqealarning turli talqinlarini solishtirish, an'ana va modernizatsiya muammolarini tahlil qilish uchun boy material taqdim etadi. Bu asarlarda tasvirlangan murosasiz qahramon xarakterlari, murakkab ijtimoiy munosabatlar, falokatli voqealar talabalarni mantiqan fikrlashga, sabab-oqibat zanjirlarini aniqlashga, turli ijtimoiy qatlamlar nuqtai nazaridan vaziyatni ko'rib chiqishga majbur qiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari, O'tkir Hoshimov, Ulug'bek Hamdam, Tog'ay Murod, Pirimqul Qodirov kabi yozuvchilarning asarlari talabalarni zamonaviy jamiyat muammolarini tanqidiy tahlil qilishga undaydi. Pedagogik eksperiment natijalariga ko'ra, milliy adabiyot asosida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning maxsus ishlab chiqilgan didaktik tizimi yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlandi. Eksperimental guruhlarda qo'llanilgan didaktik tizimning asosiy komponentlari quyidagilar edi.

Birinchi komponent - muammoli yondashuv. Har bir darsda milliy adabiyot matnlari asosida muammoli vaziyat yaratildi. Masalan, Navoiyning "Xamsa"sidan "Farhod va Shirin" dostonini o'rganishda talabalar oldiga quyidagi muammolar qo'yildi: Shirin kimni tanlashi kerak edi - Xusravni yoki Farhodmi va nima uchun? Farhod o'limining aslida kim aybdor? Navoiy bu voqeani tasvirlashda qaysi qadriyatlarni yuqori qo'yadi? Bu kabi muammoli savollar talabalarni chuqur o'ylashga, turli pozitsiyalarni ko'rib chiqishga, asosli javob izlashga undadi.^[5]

Ikkinchi komponent - dialogik o'qitish. Darslar ko'pincha Sokrat suhbat yoki evristik dialog sifatida tashkil etildi. O'qituvchi tayyor javoblar bermadi, balki tizimli savollar orqali talabalarni mustaqil xulosaga keltirdi. Masalan, Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini muhokama qilishda: "Otabek nima uchun shunday yo'l tanladi?", "Uning qarorini qanday baholaysiz?", "Boshqa yo'l bor edimi?", "Muallif Otabekka qanday munosabatda?" kabi savollar orqali talabalar o'z fikrlarini shakllantirishga yo'naltirildilar.^[6]

Uchinchi komponent - bahs-munozara. Milliy adabiyot asarlaridagi ziddiyatli masalalar bo'yicha tashkil etilgan bahs-munozaralar talabalarning tanqidiy fikrlashini kuchli faollashtirdi. Masalan, Cho'lpon she'riyatini o'rganishda "Cho'lpon she'riyatida milliy g'oya qanday ifodalangan?" yoki Oybek asarlarini tahlil qilishda "Yaxshi adabiy asar birinchi navbatda nima bo'lishi kerak - g'oyaviy yoki badiiy jihatdan mukammal?" kabi mavzularda debatlar o'tkazildi. Bahs jarayonida talabalar o'z pozitsiyalarini dalillar bilan himoya qilishga, raqib fikrlarni tanqidiy tahlil qilishga, konstruktiv muhokamalarda ishtirok etishga o'rgandilar.



To'rtinchi komponent - kichik guruhlarda ishlash. Talabalar 4-5 kishilik kichik guruhlariga bo'linib, milliy adabiyot asarlarining muayyan jihatlarini tahlil qildilar. Masalan, Hamid Olimjonning she'rlarini o'rganishda bir guruh obraz tizimini, ikkinchisi til va uslubni, uchinchisi tarixiy kontekstni, to'rtinchisi zamondoshlari tanqidini o'rgandi. Keyin har bir guruh o'z topilmalarini taqdim etdi va umumiy sintez yaratildi. Bu metod hamkorlik, bir-birini tinglash, turli nuqtai nazarlarni birlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirdi.^[7]

Beshinchi komponent - ijodiy loyihalar. Talabalar milliy adabiyot asarlari asosida turli ijodiy loyihalar bajar-dilar: tahliliy esse, multimediali taqdimot, adabiy tahlil maqolasi, adabiy qahramonlar bilan intervyu, zamonaviy talqin (asar g'oyasini hozirgi kunga moslashtirish), adabiy-tanqidiy video-blog yaratish. Bu loyihalar tala-balarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini birlashtirib rivojlantirishga xizmat qildi.

Oltinchi komponent - refleksiv faoliyat. Har bir dars yoki mavzu oxirida talabalar o'z o'rganish jarayonini, qanday qiyinchiliklarga duch kelganliklarini, nimani yangi o'rganganliklarini, qanday savollar paydo bo'lganini tahlil qildilar. Refleksiv jurnal yuritish talabalarning o'z fikrlash jarayonini anglash, tanqidiy o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantirdi.

O'z-o'zini baholash anketalari ham o'zgarishlarni ko'rsatdi. Eksperimental guruh talabalari tanqidiy tafakkur ko'nikmalariga bo'lgan ishonchlarining oshganini, milliy adabiyotga qiziqishlarining kuchayganini, mustaqil fikrlashdan qo'rqmaslik, bahs-munozaralarda faol ishtirok etishga tayyorlik kabi o'zgarishlarni qayd etdilar. Ko'pchilik talabalar milliy adabiyot asarlarini o'qishning nafaqat o'quv vazifasi, balki shaxsiy rivojlanish vositasi ekanligini ta'kidladilar. Biroq tajriba davomida ba'zi qiyinchiliklar ham aniqlandi. Dastlab ba'zi talabalar yangi metodikaga qarshilik ko'rsatdilar, chunki ular tayyor javoblar olishga o'rganishgan edilar. Muammoli vaziyatlar, ochiq savollar, bahs-munozaralar ularni bezovta qildi. Shuningdek, ba'zi talabalar o'qish hajmining oshishidan shikoyat qildilar - tanqidiy tahlil uchun asarlarni to'liq va diqqat bilan o'qish talab etildi. O'qituvchilar uchun ham yangi metodikani qo'llash dastlab qiyin bo'ldi - bahs-munozarani boshqarish, konstruktiv muhit yaratish, turli fikrlarni sintez qilish maxsus ko'nikmalarni talab etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot milliy adabiyot namunalarning talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda katta didaktik potensialga ega ekanligini isbotladi. O'zbek klassik va zamonaviy adabiyotining namunalari falsafiy chuqurlik, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi, badiiy-estetik boylik, ko'p qirrali mazmun kabi xususiyatlari bilan tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan noyob pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy adabiyot asosida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning samarali didaktik tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim muammoli yondashuv, dialogik o'qitish, bahs-munozara, kichik guruhlarda hamkorlik, ijodiy loyihalar va refleksiv faoliyat kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim talabalarning tanqidiy tafakkur darajasini sezilarli darajada oshirishi pedagogik eksperiment orqali tasdiqlandi. Milliy adabiyotning didaktik imkoniyatlari juda keng. Klassik asarlar falsafiy fikrlash, abstraktlash, ramziy ma'nolarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarixiy-biografik asarlar tarixiy tafakkur, turli manbalarni tahlil qilish, voqealarni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy adabiyot namunalari talabalarni hozirgi zamon muammolarini tanqidiy o'rganishga, insoniy muno-sabatlarning psixologik chuqurligini tushunishga yo'naltiradi. Har bir davr va janr o'ziga xos didaktik imkoniyat-larga ega va ularni to'liq ishlatish tanqidiy tafakkurning turli komponentlarini kompleks rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kadirova Z. Z. Alisher Navoiy Nasriy asarlaridagi perifrazalarning morfologik xususiyatlari //Philological research: lan-guage, literature, education. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 38-42.
2. Vygotsky L. S. The collected works of LS Vygotsky: The fundamentals of defectology. – Springer Science & Business Media, 1987. – T. 2.
3. Faxriddin o'g'li I. N. Bloom taksiyanomasi va uning bosqichlari //Shokh Articles Library. – 2025. – T. 1. – №. 2.
4. Razzoqov A. "Lison ut-tayr" dostoni kompozitsiyasi va obrazlari uyg 'unligi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2023. – T. 2. – №. 2.
5. Shamsiyev P. "Xamsa" dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzish prinsiplari //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – T. 1. – №. 1.
6. Normatov J. "O 'tkan kunlar" asarida Zaynab obrazining mifopoetik talqini //International Conference on Interdisci-pline Science. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 278-281.
7. Eshboyeva S. Hamid Olimjon she'riy dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari //conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 309-312.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.